


# "O'zkimyosanoat" AJ Yaponiya kompaniyalari bilan hamkorlikni kengaytiradi

// 07.11.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-yaponiya-kompaniyalari-bilan-hamkorlikni-keng>



Yaqinda Tokio shahrida Iqtisodiy hamkorlik bo'yicha O'zbekiston-Yaponiya qo'mitasining 17- yig'ilishi o'tkazildi. Unda "O'zkimyosanoat" AJ vakillari ham ishtirok etdi.

Tadbir davomida jamiyat mutaxassislari tomonidan kimyo sanoatida CO2 emissiyasini qisqartirish, uglerod neytralligini ta'minlash bo'yicha O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlar taqdimot qilindi.

Yakunda uglerod neytralligini ta'minlashga qaratilgan dastlabki investitsiya loyihasi bo'yicha imzolangan hujjatlar almashish marosimi bo'lib o'tdi.



Shuningdek, tashrif doirasida Tokio shahrida “Toyo” va “Itochu” kompaniyalari vakillari bilan uchrashuvlar o‘tkazildi. Muloqotlar davomida “Karbamid ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish” loyihasi doirasida yangi quvvatlar o‘zlashtirish masalasi ko‘rib chiqildi. Tomonlar loyiha parametrlari yuzasidan o‘zaro fikr almashdilar. “Toyo” kompaniyasi loyihaga texnologik yechimlar taqdim etishi, “Itochu” kompaniyasi esa uni moliyalashtirishi ko‘zda tutilgan.



Ta'kidlash joiz, loyihaning ishga tushirilishi bilan Navoiy viloyatida 350 ming tonna karbamid mahsuloti ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan.



"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati